

# Pahlovon Mahmud hayotiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman

Xiva shahrida "Pahlavon Mahmud-hassos shoir, buyuk vatanparvar, yengilmas polvon va avliyolar ustози" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi.



Xorazm viloyati hokimligi, Xorazm Ma'mun akademiyasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Xorazm viloyat bo'limi, Urganch Davlat universiteti va "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi hamkorligida tashkil etilgan anjumanda ziyolilar, talaba yoshlar, shuningdek, qardosh respublikalardan ham vakillar ishtirok etishdi. Anjuman davomida Pahlavon Mahmud hayoti va ijodi aks etgan kitoblar ko'rgazmasi va buyuk ajdodimiz haqidagi badiiy-hujjatli filmni suratga olish jaryonlari aks etgan videorolik namoyish etildi.



